



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3 uy

1 iyul 2026 yil.

05/12-8005-son

Bojxona brokerlari uyushmasi
vakili A.V.Kartavsovg'a

Toshkent shahri, Yashnobod tumani

Farg‘ona yo‘li ko‘chasi, 23-uy

Tel: 90 956-55-54

Bojxona qo‘mitasi Rahbariyatining bojxona brokerlari uyushmasi a‘zolari hamda bojxona brokerlari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan ochiq muloqotda Amaliyotda bitta bojxona posti nazoratida faoliyat yurituvchi bir bojxona omboridan ikkinchi bojxona omboriga tovarlarni ko‘chirishda tranzit deklaratsiyasini rasmiylashtirish talabi qo‘yilayotganligi, bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qo‘shimcha vaqt sarfi va ortiqcha rasmiylashtirish jarayonlarini keltirib chiqarayotganligi, shu munosabat bilan, ushbu masalani amalda qo‘llash tartibini aniqlashtirish hamda mavjud muammoni hal etish bo‘yicha qilgan murojaatingiz belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi:

Bojxona kodeksining (keyingi o‘rinlarda – Kodeks) 87- va 95-moddalarida vaqtincha saqlash va bojxona ombori bojxona rejimlarida turgan tovarlarni mazkur rejimlarda turish muddatlari tugaguniga qadar **bojxona nazorati ostida bir bojxona omboridan boshqasiga olib o‘tishga yo‘l qo‘yilishi** belgilangan.

Ma‘lumot uchun: Kodeksning 226-moddasida, tranzit deklaratsiyasi asosida yetkazib berilganligi tasdiqlangan paytdan e‘tiboran tovar vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar maqomini olishi belgilangan.

Kodeksning 220-moddasi ko‘ra, tovarni bojxona nazorati ostida yetkazib berish ustidan nazorat **tranzit deklaratsiyasi** yordamida amalga oshiriladi.

Shuningdek, tranzit deklaratsiyasi bojxona hududi bo‘ylab bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan, tovar kelib tushadigan bojxona organigacha yetkazib berilganligi nazoratini bojxona organlari tomonidan amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatdir.

Yuqoridagilar kelib chiqib, murojaatingizda ko‘rsatilgan masala Bojxona kodeksida **belgilangan talablar** hamda bojxona nazorati ostidagi tovarlar ustidan samarali bojxona nazoratini olib borish maqsadida tovarni bir bojxona omboridan boshqasiga olib o‘tish **tranzit deklaratsiyasidan** foydalangan holda amalga oshirilishi ma‘lum qilinadi.

Shu bilan birga murojaatingizda masalalar yuzasidan tushunmovchilik yuzaga kelgan taqdirda mazkur javob xatida ilova qilingan **telefon raqamiga qo'ng'iroq** qilishingiz mumkinligini ma'lum qilamiz.

Mazkur javob xati Sizni qanoatlantirmagan taqdirda, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, yuqori turuvchi organga yoki bevosita sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligingizni bildirib o'tamiz.

**Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini
tashkil etish boshqarmasi boshlig'i**



E.Salixov

*Ijrochi: M.Obloqulov
Tel: 55 502-76-00 (74-09)*